

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 2-son)



IJTIMOIIY FANLAR
SOCIAL STUDIES

ORCID:009-001-8223-6206

UDK:UDK: 93/99 +631.31.1.674

SOVET HOKIMIYATI YILLARIDA O‘ZBEKISTON QISHLOQ XO‘JALIGI MODDIY-TEXNIK BAZASIDAGI O‘ZGARISHLAR.

Gulxayo Xasanboyeva Ximmat qizi

Farg‘ona davlat universiteti O‘zbekiston tarixi

kafedrası katta o‘qituvchisi

gulhayoxasanboyeva29@mail.com

+91-110-29-03

Annotatsiya. Mazkur maqolada sovet hokimiyati yillarida qishloq xo‘jaligida texnika vositalaridan foydalanish yoritilgan. Shuningdek, tarmoq rivojlanishida moddiy-texnik bazaning o‘rni, texnika orqali respublikadagi hosil miqdorining o‘sish va kamayish bosqichlari ko‘rsatilgan. Qishloq xo‘jaligida texnik qurilmalardan foydalanish aholi turmush tarzining ajralmas qismiga aylandi. Hosildorlik va ish unumining ortish darajasi texnika vositalariga bo‘lgan talabni oshirdi. Mamlakat iqtisodiyotida asosiy o‘rinni egallagan qishloq xo‘jaligi rivoji uchun moddiy-texnik bazaga bo‘lgan e‘tibor kuchaydi.

Kalit so‘zlar: sovet hokimiyati, qishloq xo‘jaligi, moddiy-texnik baza, traktor, kombayn, terim mashinalari, paxta.

CHANGES IN THE MATERIAL-TECHNICAL BASE OF UZBEKISTAN AGRICULTURE DURING THE YEARS OF SOVIET AUTHORITY.

Annotation. This article emphasizes the application of technological tools in agriculture during the Soviet era. It also examines the contribution of the material and technical foundation to the progress of the sector, along with the fluctuations in crop yields resulting from the implementation of technology within the republic. The incorporation of technical devices into agricultural practices became a fundamental aspect of everyday life for the populace. The enhancement in productivity and operational efficiency sparked a rising need for technical equipment. Given that agriculture played a vital role in the nation's economy, there was an increased focus on the material and technical foundation to promote its advancement.

Key words: Soviet government, agriculture, material and technical base, tractor, combine harvester, harvesting machines, cotton.

ИЗМЕНЕНИЯ В МАТЕРИАЛЬНО-ТЕХНИЧЕСКОЙ БАЗЕ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА УЗБЕКИСТАНА ЗА ГОДЫ СОВЕТСКОЙ ВЛАСТИ.

Аннотация. В данной статье подчеркивается применение технологических инструментов в сельском хозяйстве в советское время. Также рассмотрен вклад материально-технической базы в развитие отрасли, а также колебания урожайности сельскохозяйственных культур, обусловленные внедрением технологий внутри республики. Внедрение технических устройств в сельскохозяйственную практику стало фундаментальным аспектом повседневной жизни населения. Повышение производительности и операционной эффективности вызвало рост потребности в техническом оборудовании. Учитывая, что сельское хозяйство играло жизненно важную роль в экономике страны, повышенное внимание уделялось материально-технической базе, способствующей его развитию.

Ключевые слова: Советское правительство, сельское хозяйство, материально-техническая база, трактор, комбайн, уборочные машины, хлопок.

KIRISH. O‘zbekiston Respublikasida mustaqillikdan so‘ng siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy-madaniy sohalarda ko‘plab ijobiy ishlar amalga oshirildi. Jumladan, O‘zbekiston tarixini chuqur va atroflicha o‘rganish orqali O‘zbekiston tarixi davrlari, tarixiy bosqichlarini yanada aniq va ravshan o‘rganildi, o‘zlikni anglash borasida salmoqli ishlar qilindi.

Hozirgi kunda ham O‘zbekiston tarixini yanada teranroq anglash, tassavvur etish vazifalaridan kelib chiqib ilmiy izlanishlar davom etmoqda. Turli tarixiy manbalarni o‘rganib, tahlil qilish, tanqidiy baholash, to‘g‘ri talqin qilish va tariximizning haqqoniy va to‘liq manzarasini ochib berish lozim.

Shu nuqtai nazardan Inson hayotining moddiy va xo‘jalik shakllari kabilarni tarixiy nuqtai nazardan har tomonlama o‘rganishga qiziqish ortib bormoqda. Jumladan, yaqin o‘tmishimiz bo‘lgan – sovet hokimiyati yillarini xolisona, chuqur o‘rganishga kirishildi. Sovet hokimiyati yillaridagi O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi ham atroflicha o‘rganildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Bu davrda yaratilgan tarixiy adabiyotlarda asosan sovet hokimiyatining O‘zbekistonda olib borgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosatini aks ettiruvchi fikrlar va ma‘lumotlar uchraydi. Shuningdek, O‘zbekiston qishloq xo‘jaligidagi o‘zgarishlar va moddiy texnik bazasi haqida ham bir qator adabiyotlar mavjud. Jumladan, V.Vengrskiyning tarixiy tadqiqotida Surxondaryo viloyatiga taaluqli MTSlarning moddiy-texnik ta‘minotining mustahkamlanishi, kolxozlarning bo‘linmas fondlarining o‘sishi, Uchqizil suv omborining qurilishi, paxtaga haq to‘lash kabi ma‘lumotlar bayon etilgan. I.Kimning asarida paxta ekin maydonlarining oshib borishi, kolxoz va sovxozlarning ishlab chiqarish samaradorlik darajasining pastligi, yosh mexanizatorlarning faolligi haqida ma‘lumotlar taqdim etilgan. Bundan tashqari X.Saidov, A.Abdullayev, R.Nazarovlarning

asarlarda qishloq xo‘jaligining paxta yakkahokimligiga bo‘ysundirilishi oqibatida mexanizatsiya va moddiy texnik bazaning kuchaytirilishi yoritilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Qishloq xo‘jaligining barcha tarmoqlarini texnikaning ishtirokisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Ayniqsa, Avtomatlashtirilgan qurilmalar mehnat unumdorligi omillaridan biridir.

Lekin, ikkinchi jahon urushidan so‘ng moddiy – texnik qurilma va uskunalari O‘zbekistonda yetarli darajada mavjud bo‘lmagan. Shu sababdan qishloq xo‘jaligi tarmog‘i moddiy –texnika bazasini tezroq va sifatliroq tarzda mustahkamlashga kirishilgan edi. Chunki, kanallar, daryolar, katta ariqlarni qazish, irrigatsiya va melioratsiya inshootlarini barpo etish kabi masalalarni zamonaviy texnikasiz amalga oshirish mumkin emas edi. Ayniqsa, paxtani mashina yordamida terishni yo‘lga qo‘yish zarur edi. Ayni holatlardan kelib chiqib, qishloq xo‘jaligi sohasida qator o‘zgarishlar ro‘y berdi. Jumladan, 1949-yilda 7 nomdagi qishloq xo‘jaligi mashinalari ishlab chiqarildi. 1959-yilga kelib bu ko‘rsatkich 14 taga, 1966-yilda esa, 33 taga yetkazildi[4;254].

Sovet hukumati qishloq xo‘jaligi tarmog‘ini moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga juda katta mablag‘ ajratdi. Xususan, 1954-1955 yillarda 34,4 milliard so‘m mablag‘ evaziga MTS (mashina traktor stansiyalari) va sovxozlar 404 ming dona traktor, 288 ming dona yuk avtomobili, 88 ming dona g‘alla kombayni olingan. Shu bilan birga, O‘zbekiston qishloq xo‘jaligiga ham katta e‘tibor qaratilgan.

O‘zbekiston SSR sanoati xodimlari paxtachilik uchun kerakli yangi texnikani ishlab chiqarishni qunt bilan o‘zlashtira bordilar. Ko‘pgina kolxozlarda traktorlardan unumli foydalanish natijasida, paxtaga ketmon bilan ishlov berish keskin kamaydi. Paxtaga ishlov berishda ketmondan foydalanishni qisqartirish, mehnat sarfini taxminan ikki marta kamaytirdi. Amalda mehnat unumdorligini ko‘rgan qishloq xo‘jaligi tashkilotlari, kolxoz rahbarlari ko‘proq texnika vositalarini sotib ola boshladilar.

Qishloq xo‘jaligiga texnika vositalarini keng joriy qilish, fan-texnika yutuqlarini ishlab chiqarish bilan chambarchas bog‘lash (sinab ko‘rish natijasida) 1950-yillarda paxtani terim mashinalari yordamida terib olish ishlaridada ma‘lum tajriba to‘plandi. Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalashda paxtani mashinalar yordamida terib olish - asosiy bo‘g‘in etib belgilandi. Hamda, mazkur sohaga alohida e‘tibor berildi.

Ya‘ni, mehnat faoliyatini yengillashtiruvchi qurilmalarni ko‘paytirishga e‘tibor qaratildi. Xususan, 1970-yil respublikada 25877 ta paxta terish mashinalari ishlagan bo‘lsa, 1986-yilga kelib ularning soni 37412 taga ko‘paytirildi[6;151]. Shuningdek, 109 km. uzunlikdagi Katta Andijon kanalining ochilishi Farg‘ona vodiysi hududidagi 140 ming gektar yerlarni sug‘orish imkonini yaratdi. Ushbu sug‘orish inshootlarini qurishda keng ko‘lamda fan-texnika yutuqlaridan foydalanildi, yangi yer qazish va qurilish texnikalari, yuqori ishlab chiqarish kuchiga ega bo‘lgan nasos qurilmalarini jalb etildi. Hamda qisqa muddat ichida katta qurilish ishlarini amalga oshirildi.

O‘zbekiston SSR qishloq xo‘jaligini yetarli darajada mashina-traktorlar bilan ta‘minlashda, 1969-yilda ishga tushirilgan Toshkent traktor zavodi katta ahamiyat kasb etdi[5;254]. Ayni holat qishloq xo‘jaligida mehnat unumdorligini ortishiga olib keldi. Masalan, 1965-yilda qishloq xo‘jaligi uchun 670 dona yuk mashinalari talab etilgan bo‘lsa, amalda u 695 tani tashkil etgan[7;57]. Ammo, ushbu sohaning takomillashuvi yetarlicha emas edi. Ya‘ni, ajratilgan mablag‘ning yetishmasligi, mutaxassis kadrlarning kamligi oqibatida, qishloq xo‘jaligi tarmog‘i texnika vositalari bilan to‘liq ta‘minlanmadi. Hamda, texnika vositalari va ularga zarur bo‘lgan asbob-uskunalarining sifati talab darajasida emasligi vaziyatni yanada og‘irlashtirdi. Ishlab chiqarilayotgan texnika vositalar, jumladan, paxta terish mashinalari texnik nosozligi ko‘p xollarda kuzatildi. Oqibatda, paxtaning ko‘p qismini yerga to‘kilishiga va xomashyo sifatini buzilishiga olib keldi.

O‘zbekiston SSRda 1990-yil jami paxtaning 57 foizigina mashinalarda terib olindi, xolos. Andijon, Buxoro, Namangan, Farg‘ona, Xorazm viloyatlarida esa, ushbu ko‘rsatkich 50 foizga ham yetmadi[4;256]. Ayni xolatdan ko‘rinib turibdiki, ishlab chiqarilgan texnika vositalari qishloq xo‘jaligi ehtiyojini to‘liq qondirmagan.

Katta ekin maydonlari, unumdor yerlar, zamonaviy mashinalar, traktorlar va kombaynlarni harakatga keltirish uchun ko‘plab muammolarga duch kelingan. Biroq majud kamchiliklar puxta o‘rganilib, tez fursatlarda yechimi topilmagan. Masalan, qishloq xo‘jaligi mutaxassislari, yuqori malakali kadrlar yetishmasligi sovet hokimiyati yillarida sohadagi mavjud muammolardan biri bo‘lgan. Hatto, ko‘plab yangi traktorlar yillar davomida ishlatilmagan. Ushbu davrda g‘alla o‘ruvchi kombaynlar, avtosisternalar ishlab chiqarish hali yo‘lga qo‘yilmagan edi.

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, ikkinchi jahon urushidan so‘ng qishloq xo‘jaligi texnikasi bir qadar rivojlandi. Lekin, qishloq xo‘jaligi sohasida yuqoridagi kabi o‘ziga xos yutuq va kamchiliklar mavjud bo‘lgan. Kamchiliklarni vaqtida bartaraf etish, hamda yutuqli jihatlarini takomillashtirish ishlari tizimli yo‘lga qo‘yilmagan. Oqibatda, tarmoqda ko‘plab muammolar yetilib borgan. Umuman olganda, texnikaning yetarli va sifatli takomillashmagani qishloq xo‘jaligining boshqa tarmoqlariga ham ta‘sirini ko‘rsatgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: O‘zbekiston, 2011.
2. Ergashev R.X. Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti. – T.: Extremum Press. – 2011
3. Murtazoyeva R. O‘zbekiston tarixi. – T.: Yangi asr avlodi, 2003.
4. Razzoqov. A. O‘zbekiston paxtachiligi tarixi. – T.: O‘zbekiston, 1994.
5. O‘zbekiston SSR tarixi. To‘rtinchi tom. – Toshkent, 1971.
6. Narodnoye xozyaystvo Uzbekskoy SSR. Staticheskoy yejegodnik. – Tashkent: Uzbekistan, 1998. c-151.
7. FVDA, 1126-jamg‘arma, 7-ro‘yxat, 130-yig‘ma jild, 57-varaq.

8. Iymanova D.A. O‘zbekistonni mahalliy rahbar kadrlar bilan ta‘minlashdagi sovetlar siyosatining oqibatlari./ADU ilmiy xabarnoma.№3 – Andijon, 2012.–63-66 betlar.
9. Yakubova D. O‘zbekistonda paxta yakkahokimligining o‘rnatilishi va uning natijalari. – T.: Tafakkur avlodi, 2021.
- 10.Xasanboyeva G. O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligidagi sug‘orish tizimi haqida ayrim fikr-mulohazalar./FarDU ilmiy xabarlar. – Farg‘ona, 2024. –281-284 betlar.
- 11.w.w.w. arxiv.uz
12. w.w.w.ziyonet.uz